

**Termiz davlat universiteti “Axborot texnologiyalari”, “Fizika-matematika”, “Ijtimoiy fanlar” va “Tarix” fakultetlari professor-o‘qituvchilari ishtirokida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi**

Joriy yilning 3- va 4-yanvar kunlari 2024/2025 o‘quv yili jarayonida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilishini oldini olish, oliygoh professor-o‘qituvchilarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosobatni shakllantirish, ularga “halollik vaksinasi”ni singdirish, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida davra suhbatlari tadbirlari amalga oshirildi.



Tadbirlarda ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son va 2024-yil 5-iyundagi O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qarori mazmun mohiyati, korrupsiyaning turlari, ularning kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar hamda korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar xususida tushunchalar berdi.

Shu bilan birga, professor-o'qituvchilarga 2024-yilning noyabr-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish Departamenti, IIV va DXX xodimlari tomonidan xamkorlikda o'tkazilgan tezkor surushtiruv tadbirlar jarayonida o'qishga kiritib qo'yishni, oliy ta'lim muassasalarining biridan ikkinchisiga o'qishni ko'chirib berishni va'da bergan 8 nafar (1 nafari Oliy ta'lim tizimi o'qituvchisi) fuqarolarning firibgarlik yo'li bilan fuqarolarning ishonchiga kirib ulardan pora olishayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlanganliklarini hamda ularning har biriga nisbatan Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) va 28, 211-moddasi (pora berish) bilan jinoyat ishlari qo'zg'atilganligini va hozirgi vaqtda tergov harakatlari o'tkazilayotganligi ta'kidlab o'tildi.



# Termiz davlat universiteti “Tabiiy fanlar”, “Iqtisodiyot”, “Milliy libos va san’at”, “Xorijiy filologiya”, “Kimyo”, “Yuridik”, “Sport faoliyati” va “O‘zbek filologiyasi” fakultetlari professor-o‘qituvchilari ishtirokida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida davra suhbatlari o‘tkazildi

Joriy yilning 4-yanvar kuni 2024/2025 o‘quv yili jarayonida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilishini oldini olish, oliygo‘h professor-o‘qituvchilarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularga “halollik vaktsinasi”ni singdirish, ularning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish hamda huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida davra suhbatlari tadbirlari amalga oshirildi.



Tadbirlarda ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son va 2024-yil 5-iyundagi O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qarori mazmun mohiyati, korrupsiyaning turlari, ularning kelib chiqish sabablari va salbiy oqibatlari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar hamda korrupsiyaga oid ma‘muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar xususida tushunchalar berdi.



Shu bilan birga, professor-o‘qituvchilarga 2024-yilning noyabr-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi Iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish Departamenti, IIV va DXX xodimlari tomonidan xamkorlikda o‘tkazilgan tezkor surushtiruv tadbirlar jarayonida o‘qishga kiritib qo‘yishni, oliy ta‘lim muassasalarining biridan ikkinchisiga o‘qishni ko‘chirib berishni va‘da bergan 8 nafar (1 nafari Oliy ta‘lim tizimi o‘qituvchisi) fuqarolarning firibgarlik yo‘li bilan fuqarolarning ishonchiga kirib ulardan pora olishayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlanganliklarini hamda ularning har biriga nisbatan Jinoyat kodeksining 168-moddasi (firibgarlik) va 28, 211-moddasi (pora berish) bilan jinoyat ishlari qo‘zg‘atilganligini va hozirgi vaqtda tergov harakatlari o‘tkazilayotganligi ta‘kidlab o‘tildi.



Universitetda huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida “Korrupsiyaga qarshi kurashish” va “Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish” mavzularida oliygoh professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari hamda akademik litsey pedagoglari va xodimlari orasida davra suhbatlari o‘tkazildi

Joriy yilning 17-yanvar kuni Termiz davlat universiteti “Kimyo” fakulteti faollar zalida, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-iyundagi 15-son bayonnomasi va ilovalarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash bo‘yicha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining chora tadbirlar rejasi (03-23-181-son, 1.08.2024-y.) 17-bandiga asosan universitetda huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida “Korrupsiyaga qarshi kurashish”, “Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish” mavzularida oliygoh professor-o‘qituvchilari va talaba yoshlari hamda akademik litsey pedagoglari va xodimlari orasida davra suhbatlari tadbiri amalga oshirildi.



Tadbirda, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari vakillari - Surxondaryo viloyati Termiz shahri Adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti – Nazarov Voxid Raxmonberdiyevich va Surxondaryo viloyati Sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov xay'ati sudyasi Shomurodov Azamat Samatovichlar taklif etildi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar korrupsiyaning xavf-xatarlari, ushbu illatga imkoniyat yaratuvchi sabablar, shart-sharoitlar va oqibatlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida ma'ruza qilishdi. Shuningdek, ular o'z chiqishlarida aholining barcha qatlam vakillari, xususan, kelajak egalari bo'lgan yoshlarning korrupsiyaga qarshi murosasiz ruhda ta'lim-tarbiya olishi muhim ahamiyatga egaligini hamda ushbu illatga qarshi kurashish – barchamizning burchimiz ekanini alohida ta'kidlab o'tishdi.

Shu bilan birga, ma'ruzachilar, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib, bu borada nafaqat mas'ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikir bo'lmog'i maqsadga muvofiqligini aytib o'tishdi. Shundan kelib chiqib, qayerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmog'imiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkorligini ta'kidlab o'tishdi.



**Universitetning “Yuridik”, “Tarix” va “Ijtimoiy fanlar” fakultetlarida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba-yoshlar klubi a‘zolari, professor-o‘qituvchilari hamda xodimlari orasida davra suhbat va “Biz yoshlar - korrupsiyaga qarshimiz” mavzusida “Stop\_korrupsiya” xeshtegi ostida chellendj tadbirlari amalga oshirildi.**

Joriy yilning 23-yanvar kuni Termiz davlat universiteti “Yuridik” fakulteti faollar zalida **“Korrupsiyaga qarshi kurashish”** va **“Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish”** mavzularida oliygohning “Yuridik”, “Ijtimoiy fanlar” va “Tarix” fakultetlarida tashkil etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha talaba-yoshlar klubi a‘zolari, professor-o‘qituvchilari hamda xodimlari orasida davra suhbat va **“Biz yoshlar - korrupsiyaga qarshimiz”** mavzusida **“Stop\_korrupsiya”** xeshtegi ostida chellendj tadbirlari amalga oshirildi.

Tadbirda ishtirokchilarga O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (O‘RQ-419-son, 2017-yil 3-yanvar) va “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunlari (O‘RQ-931-son, 2024-yil 5-iyun) hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qarorlari mazmun-mohiyati va ahamiyati tushuntirildi.



Challenging tadbirida asosiy e'tibor korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida talaba yoshlarning huquqiy bilimlarini yanada oshirish, ularning korrupsion jarayonlar ishtirokchisiga aylanib qolishi kabi noxush holatlarning oldini olish hamda universitet xodimlari va talaba yoshlari orasida korrupsiyaga qarshi toqatsiz immunitetni shakllantirishga qaratildi.

Tadbirlarda jami 247 nafar talaba yoshlar, 8 nafar tyutorlar va 3 nafar fakultetlar dekanlarining Yoshlar masalalari va ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

